



**TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHDA
MARKAZIY BANKNING ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI**

Xasanov Alisher Bahrom o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: PhD, dots. **I. Foziljonov**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari faoliyatini tartibga solishdagi roli kompleks tarzda tahlil etilgan. Tadqiqotda pul-kredit siyosati instrumentlari, prudensial nazorat mexanizmlari va makroprudensial tartibga solish choralari o'rganilgan. Bank tizimidagi risklarning zamonaviy ko'rinishlari, xalqaro Bazel III standartlarining joriy etilishi hamda komplayens-nazorat tizimining O'zbekiston bank tizimida qo'llanilishi tahlil qilingan. Maqolada tartibga solish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** markaziy bank, tijorat banki, prudensial nazorat, pul-kredit siyosati, makroprudensial siyosat, Bazel III standartlari, komplayens-nazorat, moliyaviy barqarorlik, bank tizimi, risklarni boshqarish.*

***Abstract:** This article provides a comprehensive analysis of the role of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan in regulating commercial banks. The study examines monetary policy instruments, prudential supervision mechanisms and macroprudential regulatory measures. The article analyses modern forms of risks in the banking system, the implementation of international Basel III standards, and the application of compliance control systems in Uzbekistan's banking sector. Scientific and practical recommendations for improving the regulatory framework are presented.*

***Keywords:** central bank, commercial bank, prudential supervision,*



monetary policy, macroprudential policy, Basel III standards, compliance control, financial stability, banking system, risk management.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy nazariyada Markaziy bank faqat pul-kredit siyosatini yurituvchi organ sifatida emas, balki moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi, bank tizimi ustidan makroprudensial va mikroprudensial nazoratni amalga oshiruvchi institutsional markaz sifatida qaralmoqda. Tijorat banklari iqtisodiyotda vaqtincha bo'sh pul mablag'larini jamlab, ularni qayta taqsimlash orqali ishlab chiqarish va xizmatlar sektorining uzluksizligini ta'minlaydi.

2008 yildagi global moliyaviy inqiroz tijorat banklari faoliyati ustidan nazorat mexanizmlarining yetarli darajada ishlamagan holatida yirik banklarning o'z majburiyatlarini bajara olmasligi, kreditlash jarayonlarining izdan chiqishi va iqtisodiy pasayish kuzatilishini yaqqol ko'rsatdi. Bu esa markaziy bankning faqat pul-kredit siyosatini yurituvchi emas, balki moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy institut ekanligini ilmiy asosda isbotladi.

O'zbekiston sharoitida ham ushbu mavzu alohida ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda bank tizimida olib borilayotgan islohotlar — pul-kredit siyosatini liberallashtirish, inflyatsiyani nazorat qilish tizimini joriy etish va bank nazoratini kuchaytirish — O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatining kengayib borayotganini ko'rsatadi. Amaldagi "Markaziy bank to'g'risida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlar markaziy bank zimmasiga nafaqat pul muomalasini tartibga solish, balki bank tizimi barqarorligini ta'minlash vazifasini ham yuklaydi.

Tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
SJIF:5.219



tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati, bank nazorati va prudensial tartibga solish instrumentlarining tijorat banklari barqarorligi, likvidligi va moliyaviy natijalariga ta'sirini kompleks tahlil qilishdan iborat.

I. MARKAZIY BANKNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYALARI VA HUQUQIY ASOSLARI

Markaziy bank zamonaviy iqtisodiy tizimning markaziy instituti sifatida pul-kredit munosabatlarini tartibga soluvchi, moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi va bank tizimini nazorat qiluvchi davlat organi hisoblanadi. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga binoan, mazkur muassasa davlatning mutlaq mulki bo'lgan yuridik shaxsdir. Bank o'z faoliyatini o'z daromadlari hisobidan moliyalashtiradi hamda o'z vakolatlari doirasida boshqa davlat organlaridan mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladi.

Qonunchilikning 5-moddasiga muvofiq, regulyator uch asosiy barqarorlikni ta'minlashga mas'ul: ichki bozorda narxlar barqarorligi; bank tizimi mustahkamligi; to'lov tizimlarining uzluksiz ishlashi. Ushbu funksiyalarni bajarish uchun Qonunning 12-moddasida Markaziy bankning keng ko'lamlil vakolatlari belgilab berilgan: pul-kredit va valyuta siyosatini ishlab chiqish hamda tatbiq etish; inflyatsiya darajasini prognoz qilish; banklar va to'lov tashkilotlarini litsenziyalash; mamlakatning xalqaro zaxiralarini boshqarish va saqlash; moliya xizmatlari iste'molchilarining manfaatlarini himoya qilish.

Monetar siyosat nazariyasiga asoslanib, Milton Friedman ilgari surgan konsepsiyaga ko'ra, inflyatsiya doimo monetar hodisa bo'lib, pul massasining nazoratsiz kengayishi narxlar umumiy darajasining oshishiga olib keladi. Shu



sababli markaziy banklar pul taklifini qat'iy nazorat qilish orqali narxlar barqarorligini ta'minlashga intiladi. Zamonaviy yondashuvlarda esa bu jarayon inflyatsion targetlash modeli orqali amalga oshiriladi. O'zbekistonda ham 2020-yildan boshlab inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish strategiyasi joriy etildi. Ushbu strategiya doirasida o'rta muddatli istiqbolda inflyatsiyani 5 foiz darajasiga tushirish maqsadi belgilangan bo'lib, amaliy natijalar shuni ko'rsatadiki, 2021–2024 yillar oralig'ida inflyatsiya darajasi sezilarli pasayish trendini namoyon etdi (2022-yilda taxminan 14 foiz, 2024-yilda taxminan 9 foiz atrofida shakllandi).

Tijorat banklarini litsenziyalash jarayoni ikki bosqichdan iborat: birinchi bosqichda Markaziy bank tomonidan bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnoma beriladi; ikkinchi bosqichda esa bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bir vaqtda litsenziya beriladi. Bu yondashuv bank tizimiga kirish jarayonini ikki bosqichli nazorat orqali amalga oshirishni ta'minlaydi. Bank muassislari va aksiyadorlari tarkibiga qo'yilgan talablar orqali norezident kapitalining 50 foizdan ortiq ulushga ega bo'lishi cheklanadi, bu esa bank tizimining tashqi kapitalga haddan tashqari bog'lanib qolishini oldini oladi.

II. O'ZBEKISTON BANK TIZIMINI TARTIBGA SOLISH AMALIYOTI TAHLILI

O'zbekiston moliyaviy tizimi bank-markazlashgan modelga ega bo'lib, moliyaviy resurslarning asosiy qismi tijorat banklari orqali iqtisodiyotga yo'naltiriladi. Bu esa markaziy bank nazoratining strategik ahamiyatini yanada kuchaytiradi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2025 yilgi statistik byulleteni ma'lumotlariga ko'ra, bank tizimi aktivlari so'nggi yillarda



barqaror o'sish sur'atlarini namoyish etmoqda va iqtisodiyotni kreditlash hajmi YaIM ga nisbatan oshib bormoqda.

Markaziy bank tomonidan tijorat banklarini nazorat qilishning asosiy mexanizmlari quyidagilardan iborat: kapital yetarliligi normativlari (Tijorat banklari kapitali monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi 2693-son Nizom); majburiy rezervlar normasi (3002-son Nizom); aktivlar sifatini tasniflash va zaxiralar shakllantirish tartibi (2696-son Nizom); likvid aktiv ko'rsatkichlari; valyuta pozitsiyasi cheklovlari. Ushbu me'yoriy asos orqali Markaziy bank tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning dastlabki filtrini yaratadi.

2023–2025-yillar davomida O'zbekiston bank tizimi faoliyat yuritayotgan makroiqtisodiy muhitda murakkablik darajasi oshib bordi. Kredit portfelining yuqori sur'atlarda kengayishi, chakana va ipoteka kreditlari ulushining ortishi bank sektorida aktivlar sifati, qarz oluvchilarning to'lov qobiliyati va umumiy qarz yuki bilan bog'liq xatarlarni kuchaytirdi. Shu sababli mazkur davrda makroprudensial nazoratning asosiy vazifasi kredit o'sishini barqaror darajada ushlab turish, risklarning bank balanslarida haddan tashqari jamlanishiga yo'l qo'ymaslik va moliyaviy barqarorlikni saqlashdan iborat bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki makroprudensial siyosatning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Mazkur siyosiy-huquqiy yondashuv Xalqaro valyuta jamg'armasi tavsiyalari hamda xalqaro moliyaviy nazorat amaliyotida tan olingan mezonlar asosida ishlab chiqilgan. Xalqaro tajrib tahlili shuni ko'rsatadiki, makroprudensial siyosat ikki asosiy yo'nalishga — davriy xatarlar (kredit ekspansiyasi, aktiv narxlari o'sishi) va tarkibiy xatarlar (moliyaviy institutlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik) ni boshqarishga qaratilgan bo'lishi lozim.



III. BAZEL III STANDARTLARI VA KOMPLAYENS-NAZORAT TIZIMI

Xalqaro bank nazorati sohasida Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlar amalda barcha mamlakatlar uchun mezon vazifasini bajarmoqda. Bazel III doirasida kapital sifati oshirilishi, bufer kapitali joriy etilishi hamda likvidlikni baholovchi ko'rsatkichlarning (LCR — qisqa muddatli likvidlik darajasi; NSFR — barqaror moliyalashtirish sof darajasi) amaliyotga tatbiq etilishi banklarning moliyaviy shoklarga chidamliligini oshirgan.

Bazel III standartlariga ko'ra, bazaviy I darajali kapitalga minimal talab 2015-yildan boshlab 4,5 foiz darajasida belgilangan; I darajali kapitalga minimal talab 6 foizni; umumiy kapitalga minimal talab esa kapital muhofaza buferi qo'shilgach, 2019-yilga kelib 10,5 foizni tashkil etgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2693-sonli Nizomida belgilangan kapital yetarliligi talablari ushbu xalqaro standartlar asosida shakllantirilgan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, xalqaro bank nazorati tizimida kapital sifati va risklarni boshqarish talablari yildan-yilga kuchayib bormoqda.

Raqamli texnologiyalar bank sektoriga keng joriy etilishi bilan birga yangi turdagi xavflar yuzaga kelmoqda. Masofaviy xizmatlar, avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimlari va real vaqt rejimida amalga oshiriladigan operatsiyalar bank faoliyatini tezlashtirayotgan bo'lsa-da, nazorat jarayonini murakkablashtirmoqda. Xususan, kiberxavfsizlik, masofaviy identifikatsiya va raqamli moliyaviy operatsiyalar ustidan nazoratni kuchaytirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Komplayens-nazorat tizimi tijorat banklari faoliyatini tartibga solishda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Asia Alliance Bank ATB misolida ko'rib chiqilganda, komplayens tizimining asosiy yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga



oladi: "O'z mijozingizni biling" (KYC) tartibi — yangi va mavjud mijozlarning shaxsini aniqlash, moliyaviy faoliyatining qonuniyligini baholash va ehtimoliy xavflarni aniqlash; operatsiyalar ustidan monitoring — real vaqt rejimida, ilg'or avtomatlashtirilgan dasturiy vositalar yordamida barcha moliyaviy tranzaksiyalarni nazorat qilish; raqamli identifikatsiya mexanizmi — mijozlarning shaxsini masofadan turib aniqlash imkonini beruvchi zamonaviy texnologiyalar; ichki nazorat natijalarini hujjatlashtirish va kamida 5 yil davomida saqlash tartibi.

Bankda mudofaa sanoati, atom energetikasi, kosmik sanoat, ikki maqsadli texnologiyalar, kripto-aktivlar, siyosiy tashkilotlar, qimor o'yinlari va jinsiy ekspluatatsiya kabi 8 ta yuqori xavfli faoliyat turi alohida nazorat qilinadi. Bu yondashuv bank tizimida noqonuniy kapital oqimlarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

IV. BANK TIZIMINI TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Tadqiqot natijalari umumlashtirilganda quyidagi asosiy ilmiy-amaliy tavsiyalar shakllantirish mumkin:

Birinchi yo'nalish: Tijorat banklari faoliyatini tartibga solishda nazorat mexanizmlarini riskga yo'naltirilgan model asosida chuqurlashtirish zarur. Bank tizimidagi risklar murakkablashib, o'zaro bog'liq tizimli xarakter kasb etmoqda. Shu sababli barcha banklarga nisbatan bir xil normativ yondashuvdan voz kechib, ularning individual risk profili, aktivlar sifati va likvidlik holatidan kelib chiqib differensial nazorat tizimini joriy etish ilmiy jihatdan asoslangan yechim hisoblanadi.



Ikkinchi yo'nalish: Zamonaviy sharoitda bank nazoratini takomillashtirish uchun raqamli nazorat texnologiyalarini — real vaqt rejimida monitoring, katta hajmdagi ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish va sun'iy intellekt asosida risklarni aniqlash tizimini joriy etish markaziy bank nazoratining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Uchinchi yo'nalish: Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida makroprudensial siyosat instrumentlarini keng qo'llash zarur. Xususan, kreditlar o'sish sur'atini nazorat qilish, leveraj darajasini cheklash hamda kontrtsiklik kapital buferlarini qo'llash orqali davriy tizimli xatarlarning oldini olish mumkin.

To'rtinchi yo'nalish: Tijorat banklarida kredit portfeli sifatini oshirish maqsadida kreditlash standartlarini qat'iylashtirish, qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini baholash tizimini takomillashtirish hamda muammoli kreditlar monitoringini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Beshinchi yo'nalish: Xalqaro Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi standartlarini milliy bank tizimiga moslashuvchan joriy etish zarur. Ushbu standartlarni to'liq ko'chirib olish emas, balki milliy iqtisodiyot xususiyatlari, bank tizimi rivojlanish darajasi va moliyaviy infratuzilmani hisobga olgan holda implementatsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Oltinchi yo'nalish: Bank tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni oldindan aniqlash uchun stress-test tizimini takomillashtirish va muntazam qo'llash zarur. Bu orqali makroiqtisodiy shoklar, valyuta kursi o'zgarishlari yoki foiz stavkasi tebranishlarining bank tizimiga ta'siri oldindan baholanadi.

Yettinchi yo'nalish: Markaziy bank va tijorat banklari o'rtasida yagona



raqamli platformalar, kredit tarixlari bazasi va real vaqt hisobot tizimlarini joriy etish orqali axborot almashinuvi va institutsional hamkorlikni kuchaytirish nazorat samaradorligini oshiradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari faoliyatini tartibga solishda markaziy bankning roli zamonaviy iqtisodiy tizimda tubdan transformatsiyalashib, an'anaviy monetar institutdan ko'p funktsiyali makroprudensial regulyator darajasiga o'tgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan olib borilayotgan pul-kredit siyosati, prudensial nazorat va makroprudensial tartibga solish choralari yagona tizim sifatida o'zaro uyg'unlashgan holda amal qilishi bank tizimi barqarorligini ta'minlashning fundamental sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Inflyatsion targetlash rejimiga o'tish, Bazel III talablarini bosqichma-bosqich joriy etish va komplayens-nazorat tizimini kuchaytirish O'zbekiston bank tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalarning bank tizimiga keng joriy etilishi bilan birga yuzaga kelayotgan yangi turdagi xavflar — kiberxavfsizlik, masofaviy identifikatsiya va avtomatlashtirilgan operatsiyalar bilan bog'liq risklar — tartibga solish tizimining doimiy modernizatsiyasini talab etadi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimi ko'p darajali va integratsiyalashgan bo'lishi zarur bo'lib, unda markaziy bankning roli strategik darajada muhim ahamiyat kasb etadi. U nafaqat pul muomalasini boshqaruvchi institut, balki moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi, SJIF:5.219



tizimli risklarni nazorat qiluvchi va iqtisodiy rivojlanishni muvofiqlashtiruvchi asosiy regulyator sifatida namoyon bo'ladi. Bank tizimi barqarorligining eng samarali modeli — riskka asoslangan, makroprudensial instrumentlarga tayanuvchi hamda raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan nazorat tizimini shakllantirishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 11-noyabr. — URL: www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 5-noyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni. 2020-yil 12-may.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5877-son Farmoni. 2019-yil 18-noyabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklari kapitali monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 2693-son Nizomi. 2015-yil 6-iyul.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va zaxiralar shakllantirish tartibi to'g'risidagi" 2696-son Nizomi. 2015-yil 13-iyun.
7. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi: darslik. — Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2017. — 588 b.
SJIF:5.219



8. Friedman M. A Monetary History of the United States, 1867–1960. — Princeton University Press, 1963.
9. IMF. Key Aspects of Macroprudential Policy. — Washington D.C., 2013.
10. IMF. World Economic Outlook Reports (2020–2024). — URL: www.imf.org.
11. Bank for International Settlements. Basel III phase-in arrangements. — December 2012. — URL: www.bis.org.
12. Norqobilov S., Dadaboeva H. Xalqaro amaliyotda bank nazorati: magistrLAR uchun darslik. — Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2007. — 180 b.
13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati hisoboti, 2024. — URL: www.cbu.uz.
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistika byulleteni, 2025. — URL: www.cbu.uz.
15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Makroprudensial siyosat asoslari. 2025 yil.